

## O'SMIRLARDA UCHRAYDIGAN NEVROZ KASALLIGINI OLDINI OLISH

Nurbayeva Xabiba Botirovna

Pedagogika, Psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Malikova Gulmira Sayfulla qizi

OMH fakulteti 102-B guruh talabasi

### Anotatsiya:

Ushbu maqolada nevrotik holatlar, o'smirlardan kuzatiladigan nevrologik belgilar va ularning kelib chiqish sabablari, bolalik vaqtida to‘g‘ri tarbiya berilmaganligi sababli nevroz holatlari kuzatilishi ta’siri natijasida kelajak avlod uchun foydasiz insonning paydo bo‘lishi, bolalar tarbiyasidagi o‘zgarishlar, nevroz kasaligini oldini olish chora-tadbirlar haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nevroz, nevrologiya, nevropatologiya, nevropatiya, nevrotik holatlar, nerv, asab sistemasi, nevrasteniya, psixasteniya, isteriya, psixoz, qo‘zg‘alish va to‘rmozlanish.

### Аннотация:

В данной статье рассмотрены невротические состояния, неврологическая симптоматика, наблюдалась у подростков и их причины, возникновение вредного для будущего поколения человека как результат воздействия наблюдения невротических состояний вследствие отсутствия надлежащего воспитания в детстве, развитие. Обсуждаются изменения в образовании детей, меры профилактики неврозов.

**Ключевые слова:** Невроз, неврология, невропатология, нейропатия, невротические состояния, нерв, нервная система, неврастения, психастения, истерия, психоз, возбуждение и заторможенность.

### Abstract:

In this article, neurotic conditions, neurological symptoms observed in adolescents and their causes, the emergence of a harmful person for the future generation as a result of the effect of observing neurotic conditions due to the lack of proper upbringing during childhood, the development of children's education Changes, measures to prevent neurosis are discussed.

**Keywords:** Neurosis, neurology, neuropathology, neuropathy, neurotic conditions, nerve, nervous system, neurasthenia, psychasthenia, hysteria, psychosis, agitation and inhibition.

"C:\Users\TMA\Desktop\photo\_2024-01-



Nevrozlar (nev... asabiylig -uzoq davom etgan ruhiy iztiroblar natijasida nerv sistemasi faoliyatining buzilishidan kelib chikadigan asabiy va ruhiy kasalliklar; o'zaro yaqin funksional ruhiy kasalliklar (nevraستeniya, isteriya, psixasteniya), emotsiyon yoki aqliy jihatdan toliqish natijasida, ko'pincha infekzion va boshqa kasalliklar ta'sirida yuzaga keladi. Normada ancha keng tarqalgan kasallik bo'lib, asosan, nerv sistemasi tug'ma yoki hayotda orttirilgan zaif kishilarda kuzatiladi. Nerv sistemasida hamda markaziy nerv sistemasida ham, ichki a'zolarda ham jiddiy organik o'zgarishlar bo'lmasada, bosh miyada kecha-digan asosiy jarayonlar — qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro munosabatlari buziladi. Natijada psixozlardan farqli o'laroq, bemorlar o'z kasalliklariga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'ladilar. Nevrozning, asosan, 3 ta — isteriya, nevraستeniya va psixasteniya (miyadan ketmaydigan holatlar) turi farqlanadi. Ayrim "a'zolar nevrozi" (yurak, me'da, o'pka) hozirgi vaqtida Nevrozning alohida turi emas, balki uning somato-vegetativ belgilari deb hisoblanadi. Nevroz ko'p uchraydi va yildan-yilga ko'payib borish qonuniga ega. Normadan holatdan nevrozga o'xshash holatlarni ajratmoq zarur, bu belgilari jihatdan Nevrozga aynan o'xshab ketsada, biroq ular ruhiy iztiroblar oqibatida emas, balki boshqa xastalik, Masalan, qon, miya qon to-mirlari aterosklerozi., shizofreniyaning boshlang'ich belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Nevrozning ayrim turlari kelib chiqishida kishi shaxsining kasallik oldi xususiyatlari (premorbid) katta ahamiyatga ega. Shuningdek, oliy nerv faoliyati ojizroq kishilar shunday faoliyati kuchli kishilarga nisbatan Nevrozga ko'proq moyil bo'ladilar. Bundan tashqari, birinchi signal sistemasi yuqoriyoq bo'lган kishilarda — isteriya, ikkinchi signal sistemasi kuchliroq bo'lганlarda esa miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi ko'proq uchrashi isbotlangan. Bular aralash nevrotik holatlar ko'rinishida ham namoyon bo'lishi mumkin. Nevrozni davolashda psixogen omillarni bartaraf etish zarur. Dori-darmonlar bilan birga psixoterapiya ham muhim ahamiyatga ega.

Psixasteniya (psixo... va asteniya) — ruhiy zaiflik. 1) nevrozning bir xili, bunda kishi miyasi taxlikali bilan band bo‘ladi; 2) kishi harakteridagi patologik holat (ncuxopatiyanmng bir turi); o‘z-o‘ziga ishonmaslik, hamma narsadan shubhalanish, vasvasa, vahimaga tushish. Bunday kishilarda jur’atsizlik, qat’iyatsizlik, ikkilanuvchanlik kuzatiladi. Doimiy ishoncheizlik, qo‘rquv ularni ikkilanuvchan, o‘z qobiliyatiga ishonmaydigan, beqaror odamlarga aylantirib qo‘yadi. Oxiroqibat ular vahima va shubhalanuvchan bo‘lib, arzimagan ruhiy qiyinchiliklar ta’sirida miyadan ketmaydigan holatlar nevroziga duchor bo‘ladilar.

Psixogeniyalar (psixo... va gen) — ruhiy iztirob beruvchi omillar oqiba-tida kelib chiqadigan psixik kasalliklar guruhi. Nevrozlar va reaktiv psixozlarga bo‘linadi. Ruhiy iztirob beruvchi omillarning kuchiga va davomliligiga qarab har kanday kishilarda ham uchrashi mumkin, lekin ularning kelib chiqishiga, albatta, qo‘srimcha omillar: ruhiy holatlar, jumladan, aql-idrok darajasi, ishonuvchanlik, hissiyotlar xususiyati va boshqa kasalliklar oqibati (miyaning shikastlanishi, ichki a’zolar xastaliklari, alkogolizm) ham sabab bo‘ladi. Kuchli dara-jadagi ta’sirotlar oqibatida reaktiv psixozlar kelib chiqadi. Reaktiv psi-xozlarning 3 ta asosiy mohiyati bor: 1) reaktiv psixozlar hamma vaqt ruhiy iztiroblar oqibatida kelib chiqadi; 2) bemorlar kechinmalarida esa mana shu ruhiy iztiroblar aks etadi; 3) ruhiy iztiroblar yo‘qolishi bilan ruhiy xastalik ham barham topadi. O‘z navbatida, bemorlarning shaxsiy-konstitutsional mohiyatlariga qarab asosan 3 xil nevrozlar qayd qilinadi: nevrasteniya, isteriya va miyadan ketmaydigan holatlar nevrozi.

Psixik kasalliklar, ruhiy kasalliklar, psixozlar — bosh miya faoliyatining buzilishidan kelib chikadigan kasalliklar: ruhiy faoliyatning funksional uzgarishidan to uning butunlay buzilishigacha bo‘lgan holatlar.

Ruhiy kasallikda bemor voqealikni to‘g‘ri idrok etolmaydi, shu jihatdan Ruhiy kasallik ichki kasalliklardan farq qiladi. Ruhiy kasallikning sabablari xilma-xil, bular orasida irsiy omil (nayel) asosiy o‘rin tutadi. Mas, oligofreniya, psixopatiya, maniakal-depressiv psixoz, epilepsiya va shizofreniya kelib chiqishida kishining nasl-nasabi muqim rol o‘ynaydi. Ruhiy kasallikning paydo bo‘lishi va avj olishiga infektion kasalliklar, bosh miyaning shikastlanishi, intoksikatsiya, ruhiy iztiroblar ham sabab bo‘lishi mumkin.

Onaning homiladorlik paytida kasallanishi yoki shikastlanishi sababli homilaning zararlanishi bolaning ruhiy rivojlanishdan orqada qolishiga, epilepsiya va boshqa ruhiy o‘zgarishlarga olib keladi. Surunkali alkogolizm va narkomaniya ham bora-bora kishini Ruhiy kasallikga olib borishi mumkin. Ruhiy kasallikning vujudga kelishida kasallikka sabab bo‘ladigan omillardan tashqari, kishining o‘ziga xos xususiyatlari, uning ilgari boshidan kechirgan kasalliklari (mas, miya shikastlanishi, alkogoldan zaharlanish, ichki a’zolar kasalliklari, naslida ruhiy kasallik borligi va boshqalar) ham ahamiyatga ega.

Ruhiy kasallikning belgilari, asosan, gallyusinatsiya, alaxlash, shilqimlik, hayajonlanish, ong va xotira zaiflashuvi, esi pastlik va h.k.dan iborat.

Ruhiy kasallik kishining jinsi va yoshiga ham bir qadar bog‘liq. Umuman bemorni qancha erta davolashga kirishilsa, oqibati shuncha yaxshi bo‘ladi. Kasallikni yashirib yoki uyalib, vrachga

vaqtida murojaat qilinmasa, dard ulg‘ayib, davolash ancha qiyinlashadi. Shuning uchun kishi o‘zida andak ruhiy o‘zgarish sezsa, darhol vrachpsixiatrga ko‘rinishi kerak.

Ruhiy bemorlar maxsus psixiatriya kasalxonalarida davolanadi.

Nevrologik kasallik — bu asab tizimining har qanday buzilishi bilan kechadigan holatlar. Miya, orqa miya yoki boshqa nervlardagi strukturaviy, biokimyoviy yoki elektr anomaliyalari bir qator alomatlarga olib kelishi mumkin. Xususan falaj, mushaklar kuchsizligi, zaif muvofiqlashtirish, sezuvchanlik yo‘qolishi, konvulsiyalar, tartibsizlik, og‘riq va ongning o‘zgarishi kabi jarayonlar kiradi . Tibbiyotda juda ham ko‘p tan olingan nevrologik kasalliklar mavjud bo‘lib, ba’zilari nisbatan keng tarqalgan, ba’zilari esa juda kam uchraydigan belgilarni bilan yuz beradi. Ular nevrologik tekshiruv orqali baholanishi va nevrologiya va klinik nuropsikologiya mutaxassisliklari doirasida o‘rganilishi va davolanishi mumkin. Nevrologik kasalliklar uchun aralashuvlar profilaktika choralarini, turmush tarzini o‘zgartirishni, fizioterapiya yoki boshqa terapiyani, neyroreabilitatsiyani, og‘riqni davolashni, dori - darmonlarni, neyroxirurglar tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalarni yoki muayyan parhezni o‘z ichiga oladi gan jarayondir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 2006-yilda nevrologik kasalliklar va ularning oqibatlari (to‘g‘ridan-to‘g‘ri oqibatlari) butun dunyo bo‘ylab bir milliardga yaqin odamga ta’sir qilishini taxmin qildi va sog‘liqdagi tengsizliklar va ijtimoiy nogironlik va ularning ta’siriga olib keladigan asosiy omillar sifatida aniqladi.

Aqliy o‘zgarishlar(aqliy rivojlanishdan ortda qolishi yohud uning buzulishlari).

O‘zaro aloqalar, suhbatga kirishish va muloqot qilishdagi o‘zgarish. Individual fikr yuritishdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, nevroz aqliy rivojlanishdan orqada qolish. Buning sabablari esa juda ham ko‘p turli xil kasalliklar va tug‘ma zaiflik orqali ham kuzatiladi. Bu asosan atrof-muhitga ham bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pincha esa ota-onalarga ham bog‘liq. Chunki, ular bolalarni haddan tashqari qo‘rqqoq yoki haddan tashqari erka qilib tarbiyalash oqibatida kelib chiqadi.

Biz bunday holatlarni adiblarning asarlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Said Ahmadning “Ufq “ romanidagi Hijron kunlarida nomli bobida ham ko‘rishimiz mumkin. Unda Tursinboy ismli bolaning qanday erka va tantiq, o‘ziga bino qo‘ygan, maqtanchoq qilib tarbiyalangani ota-onasi va o‘zini tengdoshlariga qilgan muomalasi, manmanlik qilishi orqali yaqqol ko‘zga tashlanishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1 KT, Thakur „Neurological Disorders“, Mental, Neurological, and Substance Use Disorders: Disease Control Priorities, Third Edition (Volume 4). Chapter 5 Neurological Disorders. Washington (DC): Patel V, Chisholm D, Dua T, et al., 14 March 2016 — 87–107 bet. DOI:10.1596/978-1-4648-0426-7\_ch5. ISBN 978-1-4648-0426-7.
- 2 Treatment of Neurological Manifestations of Gluten Sensitivity and Coeliac Disease“. Curr Treat Options Neurol. 21-jild, № 3. 26 February 2019. 10-bet. Doi:10.1007/s11940-019-0552-7. PMID 30806821.

- 3 WHO | Neurological Disorders: Public Health Challenges“ (14-mart 2007-yil). 14-mart 2007-yilda asl nusxadan arxivlandi.
- 4 Treatment of Neurological Manifestations of Gluten Sensitivity and Coeliac Disease“. Curr Treat Options Neurol. 21-jild, № 3. 26 February 2019. 10-bet. Doi:10.1007/s11940-019-0552-7. PMID 30806821.Zis P, Hadjivassiliou M (26 February 2019). “Treatment of Neurological Manifestations of Gluten Sensitivity and Coeliac Disease”. Curr Treat Options Neurol (Review). 21 (3): 10. Doi:10.1007/s11940-019-0552-7. PMID 30806821.
- 5 Sanders, T.; Liu, Y.; Buchner, V.; Tchounwou, P. B. (2009). „Neurotoxic effects and biomarkers of lead exposure: A review“. Reviews on Environmental Health. 24-jild, № 1. 15–45-bet. Doi:10.1515/reveh.2009.24.1.15. PMC 2858639. PMID 19476290.
- 6 Veterinary Neurological Centre – Neurological Signs and Diseases“. 2-noyabr 2016-yilda asl nusxadan arxivlandi. Qaraldi: 27-yanvar 2010-yil.
- 7 Merck Veterinary Manual — Reproductive System Butler, C (1 March 2005). Neurological syndromes which can be mistaken for psychiatric conditions“. Journal of Neurology, Neurosurgery & Psychiatry. 76-jild, № suppl\_1. I31–i38-bet.